



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 1-avgust, № 154 (8777)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

TADBIRKORLARGA YARATILGAN IMKONIYAT

YASHIRIN IQTISODIYOT, BYUROKRATIK TO'SIQ VA
SANSALORLIK KABI ILLATLARGA BARHAM BERIB, YUTUQ
VA MUVAFFAQIYATLARGA QANOT BO'LYAPTI

Muloqotdan muloqotgacha

Prezidentimizning 2021-yilda boshlangan tadbirkorlar bilan yangicha formatdagi ochiq muloqotlari ishbiarmonlar ko'tarib chiqqan ko'plab muammolar yechimini topishda, ularning faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan bank, bojxona, soliq sohalaridagi jarayonlarning yanada takomillashuviga muhim omil bo'lib kelmoqda. Davlat rahbarining alohida e'tibori va biznes vakillarining ilgari surgan tashabbuslari, bildirgan taklif-mulohazalari tufayli yurtimizda tadbirkorlik rivoji uchun muhim bo'lgan qadamlar tashlanayotgani ayni haqiqat.

An'anaga allaqachon aylanib ulgurgan bunday ochiq muloqotlar endilikda poytaxtdan hududlarga ko'chmoqda. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 30-mayda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida joriy yildagi tadbir Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkaziladi. Bu uchrashuvda ham ishbiarmonlarimizni o'yantirayotgan muammolar ochiq-oydin muhokama qilinishi, ular uchun manfaatli bo'lgan qarorlar qabul qilinishi kutilyapti. Biznes sohasi vakillarining fikricha, o'tgan yilgi muloqotdan keyingi ijobiy o'zgarishlar bunga to'la asos bo'la oladi.

4- sahifaga qarang.

MSK O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI

SIYOSIY PARTIYALAR VAKOLATLI VAKILLARI RO'YXATGA OLINDI

31-iyul kuni Markaziy saylov komissiyasining majlisi bo'lib o'tdi. Unda siyosiy partiyalarning vakolatli vakilini ro'yxatga olishga doir masala ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga asosan deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiya saylov komissiyasining majlislarida, hujjatlarni topshirishda, imzo varaqalari to'g'ri to'dirilganini tekshirishda, saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish uchun o'zining vakolatli vakilini tayinlashga haqli.

Vakolatli vakilini ro'yxatga olish Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan "Siyosiy partiyaning vakolatli vakili to'g'risida"gi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Unga ko'ra siyosiy partiya yuqori organining rahbari saylov kampaniyasi boshlanganligi rasman e'lon qilingan kundan boshlab besh kunlik muddatda o'z vakolatli vakilini tayinlaydi hamda uni ro'yxatdan o'tkazish uchun Markaziy saylov komissiyasiga tegishli hujjatlarni taqdim etadi.

Shu bois mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalar rahbarlari o'z vakolatli vakillarini tayinlab, ularni ro'yxatdan o'tkazish uchun ilk bor "E-saylov" axborot tizimi orqali MSKga murojaat qildi.

Majlisda Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik

partiyasi hamda O'zbekiston Ekologik partiyasi rahbarlari tavsiya etgan vakolatli vakillarga tegishli hujjatlar ko'rib chiqilib, vakolatli vakillarni ro'yxatga olish hamda ularga belgilangan shakldagi mandatni berish haqida qaror qabul qilindi.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olish jarayonlari "E-saylov" axborot tizimi orqali amalga oshirildi hamda vakolatli vakillarga mandatlar elektron shaklda tizim orqali berildi.

Shu kunning o'zida majlisdan so'ng vakolatli vakillarga siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi saylovchilar imzosini to'plash uchun belgilangan namunadagi imzo varaqalari topshirildi.

Ma'lumki, siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida to'rt oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan va o'zining saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi kamida qirq ming saylovchining imzosini to'plagan holda deputatlikka nomzodlar ko'rsatishi mumkin.

Bitta ma'muriy-hududiy tuzilmada (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) siyosiy partiya qirq ming saylovchining ko'pi bilan sakkiz foiz imzosini to'plashi mumkin.

"Xalq so'zi".

Uchrashuv

YOSHLAR PARLAMENTI FAOLIYATINI KUCHAYTIRISH YUZASIDAN TAKLIFLAR ILGARI SURILDI

Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboyeva yuqori palata huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi B. To'xtamurodov bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda Yoshlar parlamenti tomonidan joriy yil birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar, yosh avlod manfaatlariga xizmat qiladigan maqsadli loyihalar va ularning samaradorligi muhokama qilindi.

Yoshlar parlamenti a'zolarining qonun ijodkorligi jarayonlaridagi faolligi hamda hududlardagi nazorat-tahlil faoliyatida muntazam ishtirok etishi va xalqaro hamkorlik aloqalarining natijalari ko'rib chiqildi. Ayni chog'da erishilgan yutuqlar barobarida muammolar yechimi bo'yicha vazifalar belgilandi.

Senat Raisi tomonidan Yoshlar parlamenti faoliyati

samaradorligini yanada oshirish yuzasidan bir qator muhim taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Suhbat chog'ida yoshlarga oid qonunlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, yigit-qizlarning taklif va tashabbuslarini yuqori palata minbariga olib chiqish, hududlarda yoshlar muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha zarur choralarini ko'rish, mediamakonda navqiron avlod uchun foydali milliy kontentlar yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

"Xalq so'zi".

Ishchi guruh yig'ilishi

MAHALLIY KENGASHLAR XALQ HOKIMIYATCHILIGI INSTITUTIGA AYLANTIRILADI

Ma'lumki, yurtimizda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini takomillashtirish, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini transformatsiyalash, barcha ishlarni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida yo'lga qo'yish, "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" g'oyasini hayotga izchil tatbiq etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Xususan, O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish rejalashtirilgan bo'lib, bu borada Senat raisligidagi komissiyavahar bir yo'nalish bo'yicha ishchi guruhlar tashkil etildi.

ISTIQLOL KURASHCHILARI XOTIRASI MANGU BARHAYOT

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 31-avgustida Shahidlar xotirasi xiyoboniga tashrfi chog'ida "Har safar bu yerga kelib, xalqimiz ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan jasur bobolarimizni eslab, ko'nglimiz taskin topadi. Ularni xotirlash, ezgu ishlarni davom ettirish biz uchun ham qarz, ham farz. Qatag'on qilingan yetakchilarimizning taqdiri barchamizni mustaqilligimizni qadrlashga, uni asrab-avaylashga undaydi", deb ta'kidlagandi.

Munosabat


Darhaqiqat, mamlakatimizda istiqlol yillarida amalga oshirilgan eng xayrli va savobli ishlardan biri 1937 — 1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan "xalq dushmani", "aksilingilobchi", "millatchi", "quloq" sifatida qoralanib qatag'on etilgan vatandoshlarimizning pok nomlari oqlanishi bo'ldi. Jumladan, 2021 — 2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 1 200 dan ziyod siyosiy qatag'on qurbonlarining nomlari oqlandi.

Keyingi yillarda tarixiy haqiqat va adolatni tiklash, hurriyat yo'lida jon fido etgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan ishlar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Xususan, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o'tkazilib, faoliyati yanada kengaytirildi va takomillashtirildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi 13 ta oliy ta'lim muassasasi tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil etildi.

Prezidentimizning 2020-yil 8-oktyabrda "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilinishi esa ko'p millatli xalqimizning fidoyi farzandlari, ma'rifatparvar ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan bog'liq haqiqatni to'la yuzaga chiqarish, ularga nisbatan tarixiy adolatni tiklash borasidagi ishlarning ko'lami va samarasini oshirishga xizmat qildi. Farmoyish asosida Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ular xotirasini abadiylashtirish ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha respublika ishchi guruhi tuzildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida 14 ta "Qatag'on qurbonlari" kitoblari tayyorlandi. Ularga qatag'on qurboni bo'lgan 40 mingga yaqin vatandoshlarimizga o'z ma'lumotlari kiritildi.

O'ZBEKISTONDA AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA QANCHA KORXONA FAOLIYAT OLIB BORMOQDA?

O'zbekistonda 2024 yilning holatiga axborot va aloqa sohasida 9 999 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning hududlar kesimidagi soni quyidagicha:



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Mambyot xizmati.

MAHALLIY KENGASHLAR XALQ HOKIMIYATCHILIGI INSTITUTIGA AYLANTIRILADI

➡ Kecha parlament yuqori palatasida mahalliy Kengashlar deputatlarining maqomi va faoliyatining asosiy kafolatlarini yanada kuchaytirish bo'yicha ishchi guruhning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda Konsepsiya va uni amalga oshirish bo'yicha dastur loyihasini ishlab chiqishda ishchi guruh a'zolariga berilgan qator vazifalar qizg'in muhokama qilindi.

Shu jarayonda mahalliy Kengashlarning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan omil va sabablarni tahlil qilish, vakillik organlari faoliyatiga oid xorijiy tajribani o'rganish va uning natijalaridan kelib chiqqan holda Konsepsiya loyihasi yuzasidan ishchi guruh a'zolarining taklif va axborotlari tinglandi.

Qayd etilishicha, mazkur taklif va axborotlar vakillik organlarining samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan omillar va bu boradagi xorijiy tajribadan kelib chiqib mahalliy Kengashlarni tom ma'nodagi xalq hokimiyatchiligi institutiga aylantirish va bu yo'nalishdagi ishlarni izchil davom ettirishni ta'minlovchi yangi tartib-taomillarni joriy etishga alohida e'tibor berilgan holda shakllantirilgan.

Majlis yakunida ishchi guruh a'zolariga ishlab chiqilgan loyihalarni har tomonlama ilmiy-nazariy va tadqiqotlarga asoslangan holda konseptual jihatdan yana bir bor ko'rib chiqish lozimligi uqtirildi.

“Xalq so'zi”.

Senat qo'mitasida

“ISSIQXONA GAZLARI” VA HUQUQIY ASOS

Oliy Majlis Senatining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi ishchi guruhi yig'ilishida “Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida”gi qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda ishchi guruh hamda qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi a'zolari, olimlar, ekologik jamoat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari mintaqaga, xususan, O'zbekiston uchun dunyoning boshqa hududlariga nisbatan ko'proq xavf solmoqda.

O'zbekiston “Issiqxona gazlari” chiqarilishini kamaytirish bo'yicha xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Ammo hozirda sohani tartibga soluvchi qonun va normativ baza yaratilmagan. Bu esa “Issiqxona gazlari” chiqarilishini kamaytirish borasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Taklif etilayotgan qonun yurtimizda “Issiqxona gazlari” chiqarilishini kamaytirish va buning

natijasida hosil bo'ladigan uglerod birliklari muomalasini amalga oshirish tartib-qoidalarini belgilash va “Issiqxona gazlari” chiqarilishi tizimli nazoratini ta'minlashning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Muhokama jarayonida ishtirokchilar qonunning qabul qilinishi “Issiqxona gazlari” chiqarilishini kamaytirish va cheklash, uning hisobini yuritish, hosil bo'ladigan uglerod birliklari savdosini tartibga solish imkoniyatini berishini ta'kidlashdi. Ayni chog'da u sohaga oid xalqaro majburiyatlarni bajarilishiga, mamlakatimizda iqlim o'zgarishi bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning jadallashishiga, atrof-muhit va ekologiyaning yaxshilanishi, pirovardida esa barqaror rivojlanish uchun zarur sharoit yaratishga xizmat qiladi.

“Xalq so'zi”.

ISTIQLOL KURASHCHILARI XOTIRASI MANGU BARHAYOT



➡ Davlatimiz rahbarining topshirig'iga binoan Qarshi shahridagi Odina masjidida Qashqadaryo viloyati Qatag'on qurbonlari xotirasini muzeyi yangidan tashkil qilindi. Sovetlar davrida NKVD qamoqxonasiga aylantirilgan ushbu tarixiy obidada tashkil etilgan muzey 2021-yil 11-oktyabrda tantanali ravishda ochildi.

2022-yilda o'tkazilgan yana bir anjumanga to'xtalish o'rinni. 11-oktyabrda Samarqand shahrida Turkistondagi jadicchilik harakatining yetuk vakillaridan biri, ma'rifatparvar, tilshunos olim Sayid Rizo Alizoda (1887 — 1945) tavalludining 135-yilligiga bag'ishlab katta ilmiy anjuman o'tkazildi. 1937-yilda qatag'on qilingan ushbu shaxs ham o'z umri va jonini Vatan uchun, uning hur va ozod bo'lishi, xalqning farovon, tinch yashashi uchun fido qilgan inson hisoblanadi.

“O'zbekiston tarixi” telekanali bilan hamkorlikda muzeyimiz texnik bazasidan foydalangan holda qatag'on qurboni bo'lgan

vatandoshlarimizning hayoti, faoliyati va fojiali taqdiriga bag'ishlangan “Millat fidoyilari” turkum ko'rsatuvi tashkil etilib kelinmoqda. O'tgan davrda 200 dan ziyod qatag'on qurboni bo'lgan shaxslar haqida ko'rsatuvlar tayyorlandi va efrig uzatildi.

Hurfi, ma'rifatparvar ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirishda ularning hayoti va merosini o'rganish, bu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda nashr etish alohida o'rinni egallaydi. Ayni yo'nalishda muzeyimiz ilmiy jamoasi 55 ta monografiya, 35 ta ilmiy maqolalar to'plami, 5 ta o'quv qo'llanmasi nashr ettirdi. Prezidentimizning 2024-yil 19-iyuldagi “Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida”gi qarorida belgilab berilgan vazifalar, shubhasiz, 1937 — 1953-yillar mobaynida yuz bergan ayanchli qatag'on siyosatining eng nozik qirralarigacha tadqiq etishda hamda yurt, millat uchun jonlarini qurbon etgan bobolarimizning hayoti va faoliyatini chuqur o'rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ushbu qarorda ko'p jildlik “Qatag'on qurbonlari” kitobini chop etish, qatag'on qilingan yurtdoshlarimizning nomlarini Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida barpo etiladigan

ramziy kitob sahifalariga kiritish ishlarini davom ettirish, oktyabr oyining birinchi haftasini mamlakatimizda siyosiy qatag'on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlash, qatag'onga uchragan ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirish maqsadida spektakllar, badiiy va hujjatli filmlar tayyorlash, mustabid tuzum jabrdiydalarini reabilitatsiya qilish tartibini nazarda tutadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishga doir vazifalar belgilangani bu boradagi ishlarning ko'lamini yanada kengaytirishga zamin bo'ladi.

Ayniqsa, chet eldagi turli fondlar, arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma'rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatgan holda qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyatini tadqiq etishga doir ilmiy ekspeditziyalar uyushtirish to'g'risidagi tashabbus, shubhasiz, yurt taraqqiyoti, Vatan ravnaqi yo'lida jon bergan mard va jasur bobolarimizning ayni damda xorijda saqlanayotgan mo'tabar meroslarini o'rganish, bu borada yangidan-yangi uflarni ochish

Eng asosiysi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik barobarida inson xotirasi va qadrlarining shunday yuksak darajada ulug'lanayotgani farzandlarimiz uchun tengsiz saboq va munosib ibratdir. Bularning barchasi yangi O'zbekiston keyingi yillarda tom ma'noda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini ulug'lanadigan buyuk davlatga aylanayotganidan dalolat beradi.

Baxtiyor HASANOV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari
xotirasi davlat muzeyi direktori,
tarix fanlari doktori, professor.

OCHIQ GENDER MA'LUMOTLARI VA XALQARO AMALIY TADQIQOTLAR

Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va YXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori bilan hamkorlikda xalqaro vebinar tashkil etildi.

Hamkorlik

Qayd etilganidek, mazkur hamkorlik inklyuziv boshqaruv va axborotga asoslangan siyosatni ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlaydigan, O'zbekistonda farovon va adolatli kelajakni ta'minlashga hissa qo'shadigan

mustahkam ma'lumotlar tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Vebinarida gender tenglikni ta'minlash masalasida O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jamiyat va davlat boshqaruvida ularning teng

ishtirok etishiga erishish kabi masalalar chuqur tahlildan o'tkazildi.

Shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishga qaratilgan islohotlar va sohadagi natijalar xorijiy davlatlar, xalqaro tuzilmalar va chet ellik ekspertlar tomonidan ham munosib baholalanayotgani ta'kidlandi.

Misol uchun, 2024-yil 5-mart kuni e'lon qilingan Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun 2024” indeksida O'zbekiston maksimal 100 balldan 82,5 ball to'plab, gender tenglik sohasida dunyodagi eng

tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatoridan joy oldi.

Vebinarida gender ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tarqatishda muvaffaqiyatli xalqaro amaliy tadqiqotlar va innovatsion uslublardan foydalanish, O'zbekistondagi gender ma'lumotlar bo'yicha joriy amaliyotni takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashish borasidagi qadamlar tahlil qilindi va ularni takomillashtirish bo'yicha qisqa va uzoq muddatli maqsadlar belgilandi.

“Xalq so'zi”.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

QONUN IJROSIDAGI MUAMMOLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tomonidan “Organik mahsulotlar to'g'risida”gi Qonunga muvofiq organik mahsulotlarga doir umumiy talablarga rioya etilish holatini Jizzax va Namangan viloyatlari misolida nazorat-tahlil tartibida o'rganish yakunlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bunda organik mahsulotlar yetishtirishda aniq bir maqsadga qaratilgan davlat siyosati olib borilmoqda. 2022-yilda qabul qilingan “Organik mahsulotlar to'g'risida”gi Qonun hamda davlatimiz rahbarining sohaga doir qator Farmon va qarorlari bu borada muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotir.

Tadbirida ma'lum qilinganidek, mamlakatda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan sifat menejmenti talablari asosida 2020-yildan bugungi kunga qadar jami 50 ga yaqin “Organic” va 200 dan ortiq “Global G.A.P.” sertifikatlari olingan. Yetishtirilayotgan mahsulotlar turlari paxta (tekstil mahsulotlari), bug'doy, poliz ekinlari, dorivor o'simliklar, bog'dorchilik va boshqa mahsulotlardan iborat. 2023-yil davomida Jizzax viloyatida 2 ta qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati korxonasida organik sertifikatlar asosida mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Namangan viloyatida esa 4 ta ana shunday korxonaga xalqaro darajadagi organik sertifikatlar olingan.

Yig'ilishda amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda sohada ayrim kamchilik va muammolar saqlanib qolayotgani qayd etildi. Xususan, mazkur Qonunning 21-moddasida “Muvofiqlikni baholash organini avtorizatsiyalashtirish” bo'yicha normalar keltirilgan bo'lib, bu normani amalga oshirish yo'riy etish bo'yicha huquqiy mexanizm ishlab chiqilmagan.

Shu bois bugungi kunga qadar milliy darajadagi muvofiqlikni baholash organlari davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan. Organik mahsulot yetishtiruvchi subyektlar esa, asosan, xalqaro muvofiqlikni baholash organlari bilan shartnoma asosida faoliyatni amalga oshirib kelmog'da.

Deputatlarning ta'kidlashicha, joylarda olib borilgan o'rganishlar davomida ayrim mahsulotlar, xususan, kovul o'simligi o'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnoma qonunchilikda



belgilangan tartibda, ruxsat etilgan kvota doirasida tabiiy muhitdan ajratib olinayotgani va qayta ishlash (tuzlash) orqali mazkur o'simlik organik mahsulot sifatida emas, balki xomashyo sifatida eksport qilinayotgani kuzatilgan.

Munozaralar davomida deputatlar mazkur Qonun ijrosini ta'minlash maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan olib borilayotgan ishlar bilan birga, organik mahsulotlar yetishtiruvchilar manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish bo'yicha uyushmalar faoliyatining yo'lga qo'yilmagani soha rivojiga to'sqinlik qilayotganini qayd etdi.

Shu bilan birga, organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ko'maklashuvchi konsalting va servis xizmatlarining yo'lga qo'yilmagani, infratuzilmalar yetarli rivojlanmagani tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, jumladan, fermer va dehqonlar organik mahsulotlar yetishtirish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga, ishonchli axborotlarga to'liq ega emasligi ta'kidlandi.

Muhokama davomida qo'mita a'zolari shu va boshqa masalalarga alohida e'tibor qaratib, organik mahsulotlar yetishtirish va ishlab chiqaruvchilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohada yuzaga kelayotgan ayrim muammolarni bartaraf etish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar berdi.

Yig'ilish yakunida kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

ADOLAT UCHUN QO'SHIMCHA VAKOLATLAR

Parlament quyi palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi tomonidan “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida”gi qonun loyihasi mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan seminar o'tkazildi.

Deputatlar, Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman), Bola huquqlari bo'yicha vakil, ishchi guruh a'zolari va jurnalistlar ishtirok etgan tadbirida mazkur qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan qonun loyihasida Ombudsman institutiga qo'shimcha kafolatlar berish taklif etilmog'da. Xususan, Ombudsmanning institutsional asoslarini mustahkamlash maqsadida xalqaro tajribani o'rganigan holda unda Ombudsman o'z oldida turgan vazifalarini moneliksiz va samarali amalga oshirishi uchun qo'shimcha kafolatlar belgilanyapti.

Shuningdek, Ombudsmanning faoliyati to'g'risidagi ma'ruza Oliy Majlis palatalarining majlislarida har yili eshitilishi nazarda tutilmoqda. Ombudsman tomonidan har yili 15-martga qadar Oliy Majlis palatalariga giynooqqa solish holatlarining oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'ruza taqdim etish ko'zda tutilmoqda. Qolaversa, Ombudsmanning qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida quyi palataga kiritish huquqi belgilanyapti.

Loyihada Ombudsman tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish bo'yicha qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslarini yozma ravishda ogohlantirish, shu bilan birga, davlat organlari va tashkilotlar rahbarlariga aniqlangan qonunbuzilish bo'yicha uni sodir etishga imkon yaratgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida iro etilishi majburiy taqdimnoma kiritish ham nazarda tutilmoqda.

— Mazkur qonun loyihasi Qonunchilik palatasining shu yil 23-iyul kuni bo'lib o'tgan majlisida birinchi o'qishda ko'rib chiqilib, konseptual jihatdan birinchi o'qishda qabul qilingan edi, — dedi quyi palata deputati Tohir Ahmadaliyev. — Ayni chog'da deputatlar



tomonidan loyihani yanada takomillashtirish bo'yicha berilgan takliflar ishchi guruh a'zolari ishtirokida chuqur tahlil qilinaypti. Seminar davomida ham qonun loyihasini maromiga yetkazish bo'yicha ko'plab takliflar ilgari surildi. Mazkur hujjat Ombudsman faoliyatini yanada takomillashtirish, uning inson huquqlarini himoya qilish, xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadbir davomida ishtirokchilar qonun loyihasining zarurati va ahamiyatiga alohida to'xtalib, uning 5 bobi bo'yicha o'z takliflarini bildirib o'tdi. Ishchi guruh a'zolari berilgan takliflar qonun loyihasini maromiga yetkazish jarayonida e'tiborga olinishini ma'lum qildi.

Deputat Sanjar Hamidullayev ham ushbu qonun loyihasidagi muhim yangiliklar haqida so'z yuritib, bugungi kunda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mustaqil, xolis, adolati tashkilot sifatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda muhim rol o'ynayotganini qayd etdi. Loyihani yanada takomillashtirish va pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Seminar yakunida ishtirokchilar tomonidan bildirilgan asosli takliflardan qonun loyihasini maromiga yetkazishda foydalanishga kelishib olindi.

“Xalq so'zi”.

DUNYO ILM-FANIGA INTEGRATSIYA

KELAJAK UNIVERSITETLARI TIZIMINI YARATISHNING MUHIM OMILI

Prezidentimiz 11-12-iyul kunlari Fargʻona viloyatiga amaliy tashrfi chogʻida Qoʻqon universiteti faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi. Yuzma-yuz muloqotda davlatimiz rahbari keyingi yillarda mamlakatimizda barkamol avlod orzusi yoʻlidagi hayotbaxsh islohotlar, xususan, oliy taʼlim tizimidagi yangilanishlar borasida oʻz fikr-mulohazalarini bildirdi. Ayni jarayonda oldimizda turgan muhim vazifalar boʻyicha oʻz tashabbuslarini ilgari surdi.



Oliy taʼlim

Yangi Oʻzbekistonda oliy taʼlim tizimi jadal oʻsib borayotgan sohalardan biri boʻlib, ushbu yoʻnalishdagi islohotlar zamonaviy bilim va yuksak maʼnaviy-xloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarishga xizmat qilmoqda. Bu borada bir qator Farmon va qarorlar qabul qilinib, OTM faoliyatini zamonaviy mezonlar hamda jahon andozalari darajasida rivojlantirish uchun barcha imkoniyat yaratildi.

Sohadagi izchil islohotlar natijasida oliy taʼlim muassasalarida zamonaviy laboratoriyalar tashkil etildi, taʼlim jarayonida axborot texnologiyalarini keng qoʻllash va xorijiy tillarni oʻrganish uchun shart-sharoitlar muhayyo qilindi. Zamonaviy taʼlim standartlariga mos yangi oʻquv dasturlari joriy etildi, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi.

Agar soʻnggi yillarda dunyo miqyosida oliy taʼlim tizimida yuz berayotgan oʻzgarishlarga eʼtibor qaratsak, bir qator yoʻnalishlarga alohida ustuvorlik berilayotganini koʻrish mumkin. Bunga, avvalo, mehnat bozorining baynalminallashuvi, oliy taʼlim tashkilotlari xalqaro integratsiyasining jadallashganligi, jamiyatning raqamlashib borishi va sunʼiy intellektning barcha sohani qamrab olayotganligi muhim omil boʻlayotir. Ayni chogʻda kadrlar buyurtmachilari tomonidan taʼlim dasturlariga qoʻyilayotgan talablarning oshib borayotgani ham katta taʼsir koʻrsatmoqda. Shundan kelib chiqqan holda tizimda bir qator yoʻnalishlar asosiy trendga aylanib bormoqda.

Bu, avvalo, onlayn va gibrid taʼlim modellari boʻlib, bugungi kunda dunyo boʻylab keng tarqaldi. Xususan, koronavirus pandemiyasidan keyin koʻplab universitetlar onlayn kurslar koʻlamini saqlab qoldi yoki kengaytirdi. Aytaylik, AQSHning Garvard universiteti va Massachusets texnologiyalar instituti kabi nufuzli OTMlar oʻz kurslarini onlayn formatda ham taklif qila boshladi. Bu jarayon oliy taʼlim sohasidagi oʻquv jarayonlarini yanada

zamonaviylashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, talabalarining xalqaro akademik mobililigiga ham eʼtibor kuchaydi. 2023-yili dunyo miqyosida bu koʻrsatkich 6,4 million nafarni tashkil qilgan. Mobillik orqali xalqaro mehnat bozorining siljishlarini ham ushbu ustuvorlik asosida tahlil qilish mumkin. Bu koʻrsatkich boʻyicha eng koʻp qabul qiluvchi davlatlarga AQSH, Kanada, Avstraliya va Yevropa davlatlaridagi universitetlar kiradi.

Yana bir trenddagi yoʻnalish — ilmiy tadqiqot va innovatsiyalardir. Universitet-2.0 konsepsiyasining qabul qilinishi oliy taʼlimga ilmiy tadqiqotlarning kirib kelishi bilan bogʻliq. Umuman olganda, oliy taʼlimning rivojlanish evolyutsiyasi va unda qabul qilingan konseptual oʻzgarishlar ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish bilan rivojlanib bormoqda. Stenford universiteti va Massachusets texnologiyalar instituti kabi oliyogʻhlar startaplarni rivojlantirish va spin-off kompaniyalarni tashkil etishda ham katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

Raqamli texnologiyalar ham keyingi paytlarda oliy taʼlim sohasidagi ijobiy oʻzgarishlarga sabab boʻlmoqda. Xususan, tizimda korruptsiyaga barham berish, oʻqitishning gibrid tizimlarini qoʻllash imkoniyatlarining vujudga kelishi aynan shu omil bilan bogʻliq.

Bundan tashqari, 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan jamiyat, iqtisodiyot va atrof-muhit oʻrtasidagi muvozanatni saqlab, kelajak avlodlarga sogʻlom dunyoni taqdim etishga qaratilgan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlarining ishlab chiqilishi oliy taʼlim mazmun-mohiyatida ham oʻz aksini topdi. Zamonaviy oliy taʼlim muassasalari mazkur maqsadlarni toʻla qoʻllab-quvvatlash uchun unga oʻz oʻquv dasturlaridan joy berdi. Hozirda nufuzli universitetlarning oʻquv dasturlarida ushbu yoʻnalishlar toʻlaqicha qamrab olinmoqda.

Va nihoyat, inklyuziv taʼlim ham oliy taʼlimning eng muhim ustuvorliklaridan biriga aylandi. Mazkur trend barqarorlik shartlari va maqsadlari asosida oliy taʼlimda qabul qilingan konsepsiyalardan biri sanaladi. Bu orqali turli ijtimoiy

guruhlari vakillari uchun oliy taʼlimda oʻqish imkoniyatini yaratish asosiy maqsad sifatida olingan. Bunga oliy taʼlim infratuzilmasida barcha uchun teng sharoit, qulaylik va imkoniyatlar yaratish orqali erishiladi.

Yuqoridagi ustuvorliklar dunyo boʻylab oliy taʼlim muassasalarining rivojlanishini belgilab berish bilan birga, ularning kelajakdagi samaradorligini taʼminlashga ham xizmat qilmoqda.

Bugun dunyoda oliy taʼlim tizimini tashkil etish va uni rivojlantirish

oʻrinlarni egallaydi. Bu mamlakat universitetlarida talabalarga shaxsiy yondashuv va innovatsion oʻqitish usullari joriy qilingan. Janubiy Koreya, Avstraliya va Singapur taʼlim tizimlari ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga koʻproq eʼtibor qaratganligi bilan ajralib turadi. Germaniya universitetlarining oʻziga xosligi oʻquv dasturlarini tuzishda taʼlim va tadqiqotlarni birlashtirish asosida amaliyot hamda nazariyani uygʻunlashtirilganligi bilan ahamiyatli.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi bugungi kunda respublikamiz oliy taʼlim tashkilotlariga ham keng tatbiq etilmoqda. Prezidentimiz tashabbuslari doirasida Oʻzbekiston universitetlari xalqaro reytinglardagi oʻrnini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga katta eʼtibor qaratib kelmoqda. Jumladan, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlarining nufuzli universitetlari bilan hamkorlik

“Bugungi kunda yurtimizda turli mulkchilik shaklidagi 210 ta oliy taʼlim tashkilotlari faoliyat koʻrsatmoqda. Ulardan 114 tasi davlat, 67 tasi nodavlat hamda 29 tasi xorijiy oliy taʼlim tashkilotlari hisoblanadi, ularning filiallari 40 tani tashkil qiladi. Talabalar soni 1 million 200 mingga yaqinlashib, yirik universitetlar allaqachon 25 minglik dovonni bosib oʻtdi. Oliy taʼlim muassasalarida 40 mingdan ziyod professor-oʻqituvchilar faoliyat yuritmoqda. Ularning qariyb 30 foizi ilmiy unvon va darajalarga ega.”

ham alohida masalalardan biri boʻlib, mazkur jarayonga turlicha yondashuvlar mavjud. Aytaylik, AQSH oliy taʼlim muassasalari ilmiy tadqiqotlar va startaplarni qoʻllab-quvvatlash bilan mashhur. Masalan, Massachusets texnologiyalar institutining Media laboratoriyasi dunyoning yetakchi innovatsion markazlaridan biri boʻlib, bu yerda mingdan ortiq startap loyihalari ishlab chiqilgan va hozirda 33 mlrd. AQSH dollari miqdorida iqtisodiy hajmga ega boʻlgan tuzilmalari oʻzida mujassamlashtiradi. Shuningdek, xalqaro hamjamiyatda Finlandiya, Singapur, Germaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya kabi davlatlarning tajribalaridan keng foydalanib kelinadi.

Finlandiya taʼlim tizimi tajribasi xalqaro maydonda oʻzining samaradorligi bilan tanilgan boʻlib, u har yili PISA reytinglarida eng yuqori

memorandumlari imzolandi. Bunday hamkorlik natijasida Oʻzbekiston universitetlarida xalqaro darajadagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib, taʼlim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalar joriy etilyapti.

Oliy taʼlim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish ham muhim vazifalardan biriga aylandi. Oliyogʻhlarda zamonaviy axborot texnologiyalari bazasini yaratish, onlayn taʼlim platformalarini

Mamlakatimizda oliy taʼlimni rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish boʻyicha amalga oshirib kelinayotgan islohotlar istiqbolida Oʻzbekiston oliy taʼlim muassasalarini ham universitet-4.0 konsepsiyasi modellari asosida rivojlantirish imkonini beradi. Buning uchun esa oliy taʼlim tashkilotlaridan kadrlarni bozor talabari va xalqaro andozalar asosida tayyorlash tizimiga oʻtish, oʻquv dasturlarini zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida shakllantirish, laboratoriya bazalarini mustahkamlab borish talab etiladi.

Gʻafurjon ZOHIODOV,
Qoʻqon universiteti direktori, dotsent.

ANDIJON HUNARMANDLARI JAHONGA TANILMOQDA

Xonobod shahrida “Dunyo sadolari” xalqaro festivali davom etmoqda.

Festival doirasida Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bogʻida hunarmandlar koʻrgazmasi tashkil qilindi. Koʻrgazmada 50 dan ziyod hunarmandlar yuzlab mahsulotlari bilan qatnashyapti. Ular tomonidan tayyorlangan milliy kiyimlar, qoʻgʻirchoqlar, kulolchilik buyumlari, temirchilik mahsulotlari mehmonlarda katta qiziqish uygʻotdi.



Shukuh

Feruzaxon Rejabaliyeva 13 yildirki, milliy qoʻgʻirchoqlar yasash bilan shugʻullanadi. Shu hunar ortidan ikki nafar fuqaroni doimiy daromad manbaiga ega qilgan. Hozirgi kunda bir oyda oʻrtacha 350 — 400 dona mahsulot tayyorlaydi. Oʻylik daromad 4,5-5 million soʻm. “Dunyo sadolari” festivali doirasida boʻlib oʻtayotgan ushbu koʻrgazma uning uchun tajriba almashish, mahorat maktabi vazifasini oʻtayotgani bilan ahamiyatli.

— “Dunyo sadolari” festivali nafaqat madaniyat va sayyohlik yoʻnalishlari, balki hunarmandchilikning rivojlanishiga ham katta hissa qoʻshmoqda, — deydi Paxtaobod tumanilik hunarmand Feruzaxon Rejabaliyeva. — Men yasagan milliy qoʻgʻirchoqlarni minglab hamyurtlarimizdan tashqari Pokiston, Hindiston, Qirgʻiziston, Qozogʻiston, Armaniston kabi davlatlardan tashrif buyurgan mehmonlar ham xarid qilishmoqda. Ular bilan suhbat davomida bu kabi mahsulotlarni oʻz mamlakatlarida tayyorlash uslublari haqida maʼlumot oldik. Bu kelgusida oʻz faoliyatimizni yanada rivojlantirishga turtki berishi, shubhasiz.

Jalaquduq tumanilik Muhriddin Safarboyev asli haykaltarosh. Turmush oʻrtogʻi Nozimaxon Toʻlanboyeva bilan kulolchilikni oʻzlashtirganiga ikki yil boʻldi. Hozir bir oyda



Bu yerda oʻz ustaxonamizni barpo etish uchun qurilish ishlari olib borilayotir. Loyiha foydalanishga topshirilgach bir oyda yuzlab kulolchilik mahsulotlari va yigirmadan ortiq haykallar yasash imkoniga ega boʻlamiz. Qolaversa, 5 ta yangi ish oʻrni yaratiladi. Bugungi koʻrgazmada mahsulotlarimizni sotish bilan bir qatorda, turdosh hunarmandlardan yangi mahsulotlarni yasash sirlarini ham oʻrgandik.

“Dunyo sadolari” festivali doirasida, shuningdek, liboslar namoyishi, taomlar koʻrgazmasi, milliy sport oʻyinlari bellashuvlari ham boʻlib oʻtmoqda. Madaniyat xodimlari tomonidan taqdim etilayotgan dasturlar festivalga fayz ulashmoqda.

Saminjon HUSANOV
 (“Xalq soʻzi”).

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY YONDASHUVNI TALAB ETADI

Bundan oʻn — oʻn besh yil avval oʻzlarini “svet”, gaz, suv, issiqlik manbai, chiqindi xizmati, “shirkat” yoki shu kabi boshqa kommunal xizmat koʻrsatish idoralaridan ekanini aytib, toʻlov qilishingizni soʻrab keluvchilar koʻp edi. Toʻlovlar bilan bogʻliq firibgarliklar-u turli muammolar, noreal qarzdorliklar borasidagi muvozanatni ham koʻpchilik yaxshi eslasa kerak.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda kommunal xizmatlar uchun toʻlovlar tizimiga zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi natijasida bu boradagi vaziyat ancha yaxshilandi. Masalan, endilikda elektr energiyasi, gaz, suv yoki chiqindi uchun toʻlovni istalgan vaqtda telefoningizdagi maxsus ilovalar orqali amalga oshirishingiz, hisobingizni ham kuzatib borishingiz mumkin. Hammasi shaffof. Bundan, albatta, xizmat koʻrsatuvchi ham, aholi ham mamnun.

Yechimini kutayotgan muammolar

Prezidentimizning 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy taʼsirini kamaytirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni ham ushbu turdagi xizmatlar koʻrsatish sifatini yanada yaxshilash, toʻlov intizomini oshirish borasida muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Farmonda belgilangan muhim jihatlardan biri — endilikda chiqindi xizmatlaridan qarzdorligi boʻlgan abonentlarning elektr energiyasiga toʻlovlarni amalga oshirishiga cheklov oʻrnatiladi. Bu tartib joriy yilning

1-iyunidan Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlarida, keyinchalik esa bosqichma-bosqich boshqa hududlarda ham joriy etilishi belgilangan.

Darhaqiqat, elektr energiyasi, tabiiy gaz yoki ichimlik suvi uchun toʻlovlarni oʻz vaqtida amalga oshirmagan fuqarolarni tarmoqdan uzib qoʻyish mumkin. Chiqindi bilan bogʻliq holatda esa buning imkonini yoʻq. Shu bois ham aholining boshqa kommunal xizmatlarga qaraganda chiqindidan qarzdorligi katta.

Misol uchun, ayni paytda Qarshi shahri aholisiga chiqindi tashish xizmatini

koʻrsatayotgan “Qashqadaryo eko trans” MCHJning debitor qarzdorligi 6 milliard 800 million soʻmni tashkil etadi. Toʻlovlarni undirishdagi yangi tizim esa ularning bu boradagi muammolariga yechim boʻlishi tabiiy.

Shundan kelib chiqqan holda, MCHJ xodimlari oʻz abonentlarini bu tizim haqida ogohlantirib, toʻlovlarni vaqtda amalga oshirishga chorlay boshladi.

Bu jarayonda esa aholining ham eʼtirozlari yuzaga chiqdi. Xususan, bizga murojaat qilgan fuqarolarning aytishicha, aslida chiqindidan qarzdorligi oshib ketishiga ularning masʼuliyatsizligi emas, balki xizmat koʻrsatuvchi tashkilot hamda abonentlar oʻrtasidagi shartnoma tizimining shaffof emasligi sabab boʻlmoqda.

Masalan, belgilangan tartibga koʻra chiqindi tashish xizmati uchun toʻlov har bir xonadondan shu oila aʼzolari sonidan kelib chiqqan holda undiriladi. Biroq koʻp hollarda xonadonda yashovchilar soni hamda xizmat koʻrsatuvchi tashkilotdagi roʻyxat bir-biriga muvofiq kelmayapti.

— Ikki yil avval yangi xonadon olib, koʻchib chiqqanmiz va ayni paytda shu uyda roʻyxatda turib, 4 kishi uchun chiqindiga toʻlovlarni oyma-oy amalga oshirib kelyapmiz, — deydi Qarshi shahrida yashovchi Shohista Safarova.

Eski uyimizda esa hozir hech kim yashamaydi. Lekin u yerdan ham oyiga 4 kishi uchun toʻlov chiqib keladi. Ikki yildan buyon shu muammoni hal qila olmay sarsonman. Bir necha marotaba “Qashqadaryo eko trans” MCHJ nazoratchilariga shuni tushuntirdim, ular soʻragan hujjatlarni keltirib berdim, lekin muammo hal boʻlmadi. Bizda qarzdorlik yuzaga kelishiga shu holat sabab boʻlgan.

Aholi vakillarining aytishicha, yana kimningdir oila aʼzolaridan biri uzoq vaqtdan buyon xorijda ishlamaydi, qizi turmushga chiqib ketgan, farzandi boshqa shaharda oʻqishda yoki shunga oʻxshash holat. Ammo yaqinlari ular uchun ham chiqindiga toʻlov qilishga majbur boʻlmoqda. Toʻlamasa, xizmat koʻrsatuvchi qarzdorlik hisoblab boʻlaveradi. Ularni hisobdan chiqarish esa bir dunyo ovoragarchilik-u hujjatbozliklardan iborat. Bunga hammaning ham vaqti, imkon boʻlmaydi.

“Qashqadaryo eko trans” MCHJ masʼul xodimi Nuriya Sultonova bu holatga izoh berar ekan, dastlab ular xonadonlarda yashovchi aholi roʻyxatini IIB bazasidagi maʼlumot boʻyicha, keyinroq esa mahalla raislari bergan roʻyxat asosida shakllantirishni aytdi.

— Mavjud tartibga koʻra, biz aholi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri emas, balki mahalla

bilan umumiy shartnoma tuzamiz, — deydi u. — Roʻyxatni ham mahalla beradi va shu roʻyxatdagi odam soni boʻyicha xonadonlarga toʻlov yoziladi. Ammo roʻyxatda nomuvofiqlar boʻlsa, xonadon sohiblari ofisimizga kelib, kerakli hujjatlarni taqdim etsa, xonadonda yashovchilar soni oʻzgartirib beriladi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, demak, xizmat koʻrsatuvchi korxona roʻyxatining haqiqiy aholi sonidan farq qilishiga mahallalardan berilayotgan maʼlumotlarning noaniqligi ham sabab boʻlmoqda. Buning ustiga, MCHJ roʻyxatiga tuzatish kiritish ham, Nuriya Sultonova aytganichalik, oddiy ish emas, yoʻqsa, Shohista Safarova ikki yildan buyon sarson boʻlib yurmadi.

Sohadagi muammolardan yana biri “SMS-xabarnoma”lar bilan bogʻliq.

Xususan, Prezident Farmonida chiqindi xizmatlari uchun oylik toʻlovlardan qarzdorligi boʻlgan abonentlarni SMS orqali xabardor qilib borish tizimi yoʻlga qoʻyilishi, shuningdek, yangi tizimning ishga tushirilishidan avval, abonentlar qarzdorlik vujudga kelganligi toʻgʻrisida oldindan elektron toʻlov tizimlari orqali ogohlantirilishi lozimligi aniq belgilab qoʻyilgan.

Biroq biz suhbatlashgan koʻplab aholi vakillari ayni paytda chiqindidan

qarzdorligi haqida “SMS-xabarnoma”lar kelmayotganini aytishdi. Shunday boʻlgach, aholi chiqindi boʻyicha qarzdorligidan xabari boʻlmay, istalgan paytda chiroqsiz qolib ketishi ham mumkin.

Nuriya Sultonova esa aksincha, abonentlarga chiqindi qarzdorligi boʻyicha “SMS-xabarnoma”lar joʻnatilayotganini bildirdi. Faqat bazadagi telefon raqamlari yaqin orada yangilanmagan, shu bois kiimgaladir “SMS-xabarnoma” bormayotgan boʻlishi ehtimoldan xoli emas ekan.

Mavzuni oʻrganish asnosida aholi vakillari, masʼullar va mutaxasssilar bilan suhbatlashdik, ularning fikrlarini tingladik. Bir tomondan, kiimgaldir chiqindilarni tashish xizmati uchun ortiqcha pul toʻlashga majbur boʻlayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, kiimgaldir xonadonida haqiqatda yashovchilar sonini kamaytirib, toʻlovlardan qochishga harakat qilayotgani ham bor gap. Anglaganimiz shu boʻldiki, yangi tizimni yoʻlga qoʻyishda hali nuqsonlar mavjud. Oʻylaymizki, “Qashqadaryo eko trans” MCHJ ham, u xizmat koʻrsatayotgan mahallalar mutasaddilari ham ishga vijdonan yondashib, yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishadi.

Jahongir BOYMURODOV
 (“Xalq soʻzi”).

Oʻzbekistonning Benilyuks mamlakatlaridagi elchixonasi tomonidan Niderlandiyada boʻlib turgan vatandoshlar uchun sayyor qabul tashkil etildi.

TADBIRKORLARGA YARATILGAN IMKONIYAT

YASHIRIN IQTISODIYOT, BYUROKRATIK TO'SIQ VA SANSALORLIK KABI ILLATLARGA
BARHAM BERIB, YUTUQ VA MUVAFFAQIYATLARGA QANOT BO'LYAPTIQULAYLIK
KO'PAYSA,
FAOLIYAT
KENGAYADIDavron VAHOBOV,
O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat
palatasi raisi:

— Keyingi yillarda yurtimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, biznes yuritishni yengillashtirish, ma'muriy to'siqlarni olib tashlash, litsenziyalash jarayonini soddalashtirish, xususi mulk huquqi daxlsizligini ta'minlash bo'yicha tizimli choralar ko'rildi. Tadbirkorlik faoliyati kafolati bilan bog'liq huquqlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yildi.

Aniq dalillar bilan aytadigan bo'lsak, biznesni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun talab etiladigan tartibotlar soni 3 tagacha, sarf qilinadigan vaqt esa 5,5 kundan 3 kungacha qisqardi. O'z navbatida, ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar ham kamaydi. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish uchun 37 turdagi litsenziya va 10 turdagi ruxsatnoma olish majburiyatlari bekor qilindi. 16 ta litsenziya va 11 ta ruxsatnoma boshqa hujjatlar bilan birlashtirish orqali qisqartirildi. 31 litsenziya va ruxsatnoma olish o'rni xabarador etish tartibi yo'lga qo'yildi.

Natijada tadbirkorlarning qariyb 350 mlrd. so'mlik xarajatlari tejaldi. Soliq ma'murchiligi soddalashtirilib, uning turlari 13 tadan 9 taga qisqartirildi.

Gap mamlakatimizda ishbiarmonlik muhitini zamon talablari darajasiga ko'tarish, tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish haqida borar ekan, bunda davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari alohida o'rin tutishini ta'kidlab o'tish lozim. Negaki, bundan uch yil muqaddam ilk bor tashkil etilib, har yili "Tadbirkorlar kuni" arafasida o'tkazib kelinayotgan mazkur uchrashuv tadbirkorlik rivoji bilan bog'liq ustuvor masalalarni muhokama qilish, bu yo'lga to'siq bo'layotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish, shu orqali qulay ishbiarmonlik muhitini shakllantirishda juda katta samara bermog'da.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti bu yil mamlakatimizda yo'lga qo'yilgan masalani joyiga chiqqan holda o'rganish va hal etish tizimiga hamohang tarzda poytaxtimizdan tashqarida o'tkazilayotgani ham bejiz emas. Chunki bunda Orolbo'y hududida yashayotgan aholi turmush darajasini yuksaltirish, ekologik muammolar yuzaga kelgan Qoraqalpog'istonga mamlakat biznes vakillari nigohini qaratishdek ezuq maqsadlar mujassam desak, yangilishmagan bo'lamiz. Ochik muloqot doirasida tashkil etilishi kutilayotgan xalqaro biznes forumi esa Qoraqalpog'istondagi tadbirkorlar uchun tajriba almashish, "Qoraqalpog'istonda biznes qiling" dasturi doirasida yirik xorijiy brendlarni jalb etishda yaxshi imkoniyatlar yaratadi.



SUN'IY TO'SIQLARNI OLIB TASHLASH KERAK

Serebboy RAHMETOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasidagi
"Agro Eksim Gold" MCHJ rahbari:

— Ellikqal'a tumanida meva-sabzavot eksporti bilan shug'ullanamiz. Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasidagi b i z n e s hamkorlarimizga m a h s u l o t yetkazib beramiz. Prezidentimizning o'tgan yili bo'lib o'tgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ishtirok etganman. O'shanda Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlar faoliyati bilan bog'liq yutuq va muammolar haqida o'z fikrlarimni, takliflarimni aytgan edim. Quvonarlisi shundaki, takliflarimiz inobatga olindi. Eksportchi korxonalarga qulay imtiyoz va yengilliklar berildi. Bu faoliyatimizni yanada kengaytirishda qo'l keldi.

Hozirgi kunda Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarida 4 gektardan issiqxona xo'jaliklarimiz mavjud. Jami 150 ga yaqin ishchi-xodimlar mehnat qilayotgan bu majmualarda chet mamlakatlarda katta talabga ega bo'lgan pushti rangdagi pomidorlar yetishtiryapmiz. Ayni paytda 100 ming dollardan ziyod mahsulotni sotgan bo'lsak, avgust oyida yana takroriy urug' ekib, sentyabr-oktyabr oylarida tayyor bo'lgan mahsulotni xorijiy iste'molchilarga yetkazib beramiz.



yetkazib beramiz. Joriy yil yakuniga qadar ikki tuman bo'yicha 2,5 mln. dollarlik mahsulot eksport qilishni mo'ljallab turibmiz. Bugungi kunda bizda mavjud yagona muammo shundaki, jo'natilayotgan mahsulot uchun to'lov xorijdan 180 kunda kelib tushadi. Bu yerda ish haqi, transport va boshqa xarajatlar uchun esa qo'shimcha mablag' talab qilinmoqda. Shu bois bankdan qo'shimcha kredit olmoqchi edim. Biroq bank ayni pishiqchilik paytida kredit berishni paysalga solmoqda. Prezidentimizning tadbirkorlar bilan bo'ladigan bu yilgi ochiq muloqotida eksportchi korxonalar uchun imtiyozli kreditlar ajratishda sun'iy to'siqlarni olib tashlash borasida o'z fikrlarimni aytmoqchiman.

GULLAB-
YASHNAYOTGAN
QAL'ADilfuza DJIYENBEKOVA,
Nukus shahridagi "Massaget Nukus Tur"
MCHJ rahbari:

— 2008-yildan buyon turizm yo'nalishida tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelyapman. Yetti yildirki, sayyohlar uchun mehmonxona xizmati ko'rsataymiz. Nukus shahrining markaziy ko'chasiga o'zgacha salobat va ko'rk baxsh etib turgan

"Massaget" nomli mehmonxonamiz 47 nafar sayyohni qabul qilishga tayyor. Bundan tashqari, 2021-yilda qurilgan 50 o'rinni "To'maris" mehmonxonamizda ham mahalliy va chet ellik turistlar uchun qulayliklar yaratilgan. Bugungi kunda uchinchi mehmonxonani ishga tushirish arafasida turibmiz. U 4 qavatli bino bo'lib, 80 nafar sayyohni yashashi uchun mo'ljallangan.


Prezidentimiz tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish uchun katta imtiyozlar yaratilmoqda. Masalan, mehmonxona xizmati ko'rsatuvchilar uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha 5 yilga 90 foizgacha imtiyoz berildi. Hozirgi kunda ham bu imtiyozlar amalda. Masalan, bitta mehmonxona uchun 40 mln. so'm o'rni 4 million so'm soliq to'layapmiz. Foydaga qoladigan mablag'ni biznesni rivojlantirishga, xonalarni davlat standartlariga mos tarzda jihozlashga sarflayapmiz. Keyin yangi qurilayotgan mehmonxonani davlat dasturiga kiritib, 14 foizlik kredit oldik. Buyam ichki turizm uchun katta yordam.

Xorijlik sayyohlar chet elda turib, internet orqali Booking.com sayti o'chib, Nukus shahri mehmonxonalari shart-sharoitlari, imkoniyatlarini ko'rish mumkin. O'sha joyda mehmonxonalarning reytingi berilgan. O'tgan yili qanday mehmonlar kelgani, mehmonxona ularda qanday taassurot qoldirgani haqida ma'lumotlar joylashtirilgan. Shunga qarab, o'zlariga yoqqanini tanlashi mumkin. Bizning xizmat ko'rsatish darajamiz monitoringi 8,2 ballga teng. 25 ta ish o'rni yaratilgan. Bahor va kuz paytida yana qo'shimcha shartnoma asosida ishchi o'rni ehtiyoj tug'ildi.

Bundan 10 yil oldin Nukus shahrida 3-4 ta mehmonxona bor edi, xolos. Bugungi kunda ular soni 30 dan oshib ketdi. Shu yillar davomida xorijlik sayyohlar 10 baravar ko'paydi. Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilishi hududning gullab-yashnashiga, olis va chekka ovullarda aholi turmush darajasining yuksalishiga xizmat qiladi, deb ishonaman.

400 KISHI TAQDIRIGA
DAXLDORMAN...Aygul TASBAYEVA,
"Nukus polimer zavod"
MCHJ rahbari:

— 2023-yilgi ochiq muloqotda qatnashib, davlatimiz rahbarining biz, tadbirkorlarga yaratib bergan quvurlar yengilliklarini e s h i t i b, juda quvondim. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida mehmonxona qurgan ishbiarmonlarga soliqdan imtiyozlar taqdim etilishi muhim yangilik edi. Bu ishga men ham qo'l urdim. Nukus shahrida 140 o'rinni mehmonxona quraymiz. Shu yil avgust oyida ishga tushadi. Maqsadimiz — qadimiy va hamisha navqiron shahrimizga chet eldan sayyohlar ko'proq kelsin, dovrug'i dunyoga yoyilsin. Keladigan mehmonlarni munosib kutib olish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun biz



mehmonxonani har jihatdan mukammal tarzda barpo etyapmiz. Tadbirkorlarga berilayotgan imtiyozlar tufayli biznesni kengaytirib boryapmiz. Odamlarning yaxshi kunlariga kamarbasta bo'lish maqsadida to'yxona quridik. "Nukus polimer zavod" nomli MCHJ tashkil qilib, 10 turdagi polimer quvurlar ishlab chiqaryapmiz. Nukus shahrida yangi bolalar bog'chasini ishga tushirdik. 100 nafar bola qatnaydigan bu maktabgacha ta'lim tashkilotida yaratilgan qulayliklardan ota-onalar juda mamnun.

Hammasi bo'lib men rahbarlik qilayotgan biznes tuzilmalarida 400 dan ortiq ish o'rnlari yaratilgan. Faoliyatimning tobora kengayib, ish o'rinlarining ko'payib borishi davlatimiz rahbarining har yili o'tkaziladigan ochiq muloqotlarida biz, tadbirkorlarga yangi-yangi imtiyoz va qulayliklar yaratib berayotgani tufayli desam, sira mubolag'a emas.

"QORAQALPOG'ISTONDA
BIZNES QILING"Kazbek ARTIKOV,
O'zbekiston Savdo-
sanoat palatasining
Qoraqalpog'iston
Respublikasi
boshqarmasi boshlig'i:

— Shu kunlarda Prezidentimizning tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan ochiq muloqotiga puxta tayyorgarlik ko'rilmog'da. Qoraqalpog'iston Respublikasida joriy yil avgust oyida xalqaro biznes forumi tashkil etilishi esa quvonchli voqealardan biri bo'ladi. Unda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi elchilari bilan hamkorlikda xorijiy investorlarning kelishi hamda turli kelishuvlarning imzolanishi biznesimiz taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Albatta, bu kabi nufuzli tadbirning hududimizda o'tkazilishi biz, tadbirkorlarning kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shadi. Uchrashuvda davlatimiz rahbari bilan muloqot o'tkazish barobarida, xalqaro darajadagi yetakchi

tadbirkorlar bilan fikr va tajriba almashish imkonini yaratiladi. Ochik muloqot doirasida tashkil etiladigan xalqaro biznes forumi bunga imkon beradi. Bundan tashqari, yil oxiriga qadar O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi elchilari bilan hamkorlikda "Qoraqalpog'istonda biznes qiling" dasturi doirasida yirik brendlari respublikaga jalb etiladi.

Savdo-sanoat palatasining ochiq muloqotni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha ishchi guruhi tashkil etilib, "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Respublika shtabi tarkibida vazirlik, idora va tashkilotlar mas'ul mutaxassislari ro'yxati shakllantirildi.

Tashkil qilinadigan respublika shtabi hamda 24/7 rejimida ishlovchi Call markazga palata xodimlari 15-iyundan 20-avgustga qadar jalb etiladi. Ochik muloqot doirasida murojaatlarni qabul qilish, umumlashtirish va nazorat etish, shuningdek, natijalari, qabul qilingan qonunchilik hujjatlarini joylashtirib borish imkonini beruvchi "Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot" elektron platformasini ishga tushirish choralari ko'rilmog'da. Dasturdan ko'zlangan maqsad butun mazmun-mohiyati bilan hudud iqtisodiyotini yuksaltirishga qaratilgan.

Ochik muloqot — o'z nomi bilan ochiq muloqot. U nafaqat yutuqlarni, balki kamchiliklar va muammolarni ham ro'yiost gapirib, ularning yechimini izlash imkonini beradi. Aynan shunday muloqot maydoni bo'lmagan sabab yaqin o'tmishimizda tadbirkorlar "dardini" kimga aytishni bilmasdi. Muammolar esa tobora ko'payib boraverardi. Bugun zamon o'zgardi. O'zgarandayam ochiqlik, oshkorlik tomon yuz tutdi. Elning qadrini, tadbirkorning qaddini ko'taradigan davr keldi. Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti ana shu o'zgarishlar silsilasida muhim halqa vazifasini bajaradi. Bunday muloqotlar nafaqat tadbirkorlarning, balki xalqimizning baxti va iqboli yo'lida xizmat qiladi. Chunki tadbirkorlik rivojlansa, el farovon bo'ladi, mamlakat taraqqiy topadi.

Faxriddin BOZOROV,
G'ayrat OTAJONOV,
"Xalq so'zi".O'zbekistonda onalar va bolalarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam takomillashtirilishi natijasida
onalar o'limi darajasi 34, besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi darajasi 26 foizga kamaydi.Xalq so'zi
Narodnoe slovoMUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229.
Buyurtma G 542, 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va
umumligi qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida terildi hunda operator
M. Begmatov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-
matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir F. Bozorov.
Musahhib Sh. Mashrabboyev."Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.05 Topshirildi — 23.00

1 2 3 4 5 6